

GODONIMLARNING LEKSIK-SEMANTIK VA TIZIMLI XUSUSIYATLARI

Samigov Xushnuda Batirovna, f.f.d. (DSc), professor. O'zDJTU

Turdaliyeva Durdona Adxamovna, o'qituvchi, O'zDJTU

Anotatsiya. Ushbu maqola godonimlarning leksik-semantik va tizimli xususiyatlarini nazariy jihatdan o'rganib chiqadi va taxlil qiladi. Godonimlar - shahar onomastik tizimining eng faol qatlamlaridan biri bo'lib, ular leksik-semantik tuzilishi, motivatsion xususiyatlari, grammatik shakllanishi hamda tizim ichidagi munosabatlari bilan ajralib turadi. Shahar makonidagi har bir ko'cha nomi denotativ va konnotativ ma'no qatlamlariga ega. Denotativ qatlam o'rni va obyektini bildirsa, konnotativ qatlam madaniy, tarixiy, ideologik mazmunni aks ettiradi. Superanskayaning ta'kidlashicha, "ko'cha nomlarining semantik tarkibi ijtimoiy-madaniy haqiqatning lingvistik aksidir".

Kalit so'zlar: antroponimlar, geotoponimlar, godonimlar, ideologik yangilanish, navigatsiya, tarixiy-ideologik, topografiya.

Godonimlar tarkibida antroponimlar (Shakespeare Street), geotoponimlar (Samarqand yo'li), ideologik nomlar (Friendship Avenue) hamda kasbga oid atamalar (Baker Street) keng qo'llanadi. Sh. Rahmatullayev "toponimlarning semantikasi ko'pincha ular orqali berilgan obyektning tarixiy-madaniy mazmuni bilan bog'liq"ligini aytib o'tadi.

Godonim - bu shunchaki joy nomi emas, balki shahar makonining kognitiv modeli va ijtimoiy hayotning pragmatik vositasidir. U tarix, xotira, siyosat va madaniyatning lingvistik kodini o'zida mujassam etadi.

Godonimlar fokal (diqqat markazidagi) toponimlar bo'lib, shahar aholisida psixologik va emotsional assotsiatsiyalarni uyg'otadi. Lynch fikricha, ko'cha nomi shahar haqida "ichki navigatsiya"ni shakllantiradi. Shu sababli godonimlar: orientatsiya vositasi, ijtimoiy identifikator, madaniy xotira belgisi vazifalarini bajaradi.

Jamiyat taraqqiyoti bilan birga godonimlarning ma'no qatlamida ideologik yangilanish yuz beradi. Masalan, O'zbekistonda mustaqillikdan keyin: Sovet mafkurasi bilan bog'liq ko'cha nomlari → milliy tarixiy shaxslar nomi bilan almashtirildi va bu o'zgarishlar identitet transformatsiyasining lingvistik ko'rinishidir, deb fikrlaydi M. Golomidova o'z tadqiqotlarida.

Godonimlar:

- maxsus leksik-semantik struktura
 - tizimli va kategorial birlik
 - lingvokulturologik mazmun tashuvchi
 - ijtimoiy-tarixiy o'zgarishlarning belgilari
- sifatida onomastika va urbanonimika doirasida alohida ahamiyatga ega.

Godonimlar motivatsiyasiga ko'ra quyidagi asosiy semantik guruhlarga bo'linadi:

Semantik guruh	Ta'rif	Misollar	Madaniy mazmun
Antroponimik	mashhur shaxslar nomi	Alisher Navoiy, Shakespeare Street	Milliy qahramonlar xotirasi
Tarixiy ideologik	- siyosiy voqealar, bayramlar	G'alaba, Independence Avenue	Mafkuraviy qadriyatlar
Topografik geografik	- hudud, relyef xususiyati	Bog' ko'chasi, Riverside Road	Mahalliy tabiat
Madaniy- hunar	san'at, kasb, fan sohalari	Teachers' Street, Opera Lane	Kasb-hunar qadriyatlari

Mahalliy xalqona	- an'anaviy nomlar	Chorsu, Old Town Lane Urban	madaniyat xotirasi
---------------------	--------------------	--------------------------------	--------------------

Bu tasnif godonimlarning lingvokulturologik yukini boyligini ko'rsatadi. Demak, tizimli-lingvistik xususiyatlarga to'xtaladigan bo'lsak, godonimlar tilning umumiy leksik tizimida maxsus strukturaga ega ekanligini aniqlashimiz mumkin:

1. Nomlash modelining soddaligi:

- O'zbek va ingliz godonimlarida **ot + aniqllovchi** so'z modeli keng:

Amir Temur ko'chasi / King Street

2. Kategorial barqarorlik:

- Godonimlar odatda o'zgarishga kam uchraydi; o'zgarishlar siyosiy kontekst bilan bog'liq.

3. Morfologik xususiyatlar:

- Ingliz tilida determinativ birliklar (Street, Road, Lane, Avenue) majburiy.
- O'zbek tilida ko'cha, yo'l, tor ko'cha va boshqalar nomdan keyin keladi.

4. Sinonimik - variantlilik imkoniyati:

- Bir ko'chaning norasmiy nomlanishi mavjud bo'lishi mumkin, masalan, Brodvey - rasmiy Broadway Street va xalq tilida ishlatilishi.

Godonimlar shahar makonini nafaqat belgilash va navigatsiyada yordam berish vositasi, balki inson ongida muayyan tasavvur va xotiralarni shakllantiruvchi kognitiv birliklar sifatida ham alohida ahamiyatga ega. Har bir ko'cha nomi shahar haqidagi bilimlar tizimida "mental xarita"ning elementi bo'lib xizmat qiladi. Shu orqali odamlar fazoda joylashish, tanishish va yo'nalish aniqlashda lingvistik signal sifatida godonimlardan foydalanadilar.

1. Kognitiv xususiyatlar:

- Godonimlar - mental xarita markazi (fokal nuqtalar), ya'ni shahardagi muhim ko'chalar inson ongida orientir vazifasini bajaradi. Masalan:

a) "Buyuk Ipak yo'li" - global tarixiy yo'nalish obrazi;

b) "Broadway" - Nyu-Yorkdagi teatr madaniyati bilan bog'liq kognitiv model.

Bular kognitiv landmark sifatida esga olinadi (Kevin Lynch, 1960).

- Xotira va identitetni saqlash, ya'ni shaxsiy va jamoaviy xotira ko'chalar nomi orqali "kodlangan".

a) Amir Temur ko'chasi - milliy yetakchilik ideali;

b) G'alaba maydoni - tarixiy g'alabalar xotirasi.

Godonimlar kollektiv ong (collective memory)ni qayta ishlab turadi.

- Konseptual doiralar shakllantirish, bunda godonimlar ijtimoiy konseptlarni toifalarga ajratadi:

a) adabiyot → Shakespeare Street

b) ilm → Newton Avenue

c) davlat → Mustaqillik xiyoboni.

Shu tariqa, ular madaniy konseptosferaning bir qismi bo'ladi.

1. Pragmatik xususiyatlar ustida to'xtaladigan bo'lsak, izlanishlar shuni ko'rsatadiki, pragmatika nuqtai nazaridan godonimlar ijtimoiy xabar tashuvchi nutqiy birliklarning alohida turidir. Ular quyidagi vazifalarni bajaradi:

- Normativ va tartibga soluvchi funksiya: manzil, huquqiy rasmiylashtirish, pochta xizmatlari:

- Ijtimoiy identifikatsiya: ko'cha nomi bilan manzilli identitet bog'lanadi, ya'ni "Qaysi ko'chadansiz?" - ijtimoiy belgilashning muhim kodi. Bu urban sotsiopragmatikaning unsuri hisoblanadi.

- Siyosiy va ideologik ta'sir vositasi. Nomlar orqali hukumat g'oyaviy pozitsiya bildiradi, masalan, Lenin ko'chasi → Mustaqillik ko'chasi kabi o'zgarishlar tarixiy xotirani qayta yozish amaliyotini ko'rsatadi.

- Turistik va iqtisodiy brending. Xorijiy investitsiya va sayyohlarni jalb etish maqsadida godonimlar maqsadli tanlanadi:

a) Silk Road Street (xalqaro bozor uchun qulay);

b) Downtown Avenue (amerikancha brending).

Bu urban marketing pragmatikasiga kiradi.

Godonimlar quyidagi integrativ funksiyaga ega:

Kognitiv funksiyalar	Pragmatik funksiyalar
Fazoda orientatsiya	Yo‘nalish belgilash
Mental xarita yaratish	Boshqaruv va hujjat yuritish
Madaniy xotira	Siyosiy-ideologik xabar
Identitet shakllantirish	Jamoa birligini mustahkamlash

Demak, godonimlar tafakkur va ijtimoiy amaliyot tutashgan nuqtada joylashgan lingvokulturoremal birlikdir.

Godonimlarning kognitiv va pragmatik roli vaqt o‘tishi bilan yangilanib boradi:

Jarayon	Natija
Renaming (nom almashtirish)	Kollektiv xotirani siyosiy qayta talqin qilish
Internatsionallashuv	Inglizcha elementlarning ko‘payishi: Boulevard, Street
Raqamlashtirish	Ko‘cha navigatsiyasi mobil xaritalarga integratsiyasi
Gibrid nomlar	Brending va globallashgan identitet

Bu esa godonimlarning dinamik semiotik tizim ekanligini tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Грбаневский, М.В. “Ономастика города”. Москва, 2000.
2. Anderson, J. “Urban Toponyms and Cultural Identity”. Cambridge University Press, 2015.
3. Mahmudov, N.M. “O‘zbek toponimikasi asoslari”. Toshkent, 1999.
4. Dadaboyev, Sh. “O‘zbek toponimlari tarixi”. Toshkent, 2005.

5. Jo'rayev, G. "Urban toponimlarining leksik-semantik xususiyatlari". Toshkent, 2010.
6. O'zbekiston Respublikasi Davlat Arxivi, 2021.
7. Xatamov, R. "Zamonaviy O'zbek Onomastikasi". Toshkent, 2022.

